BARKAMOL AVLODNI VOYAGA YETKAZISHDA MILLIY-MADANIY MEROSNING ROLI

Botirova Shoira Karimjonovna
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mustaqillik yillarida madaniy merosning yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishdagi o‘rni, axloqiy munosabatlar, milliylik va umuminsoniylik, inson va ma’naviy meros munosabatlarini ochib berish, hamda ularning muhim xususiyatlarini o‘rganish, davlat va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni falsafiy-huquqiy, nazariy jihatdan yoritilishiga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: milliy, ma’naviy meros, yoshlar, jarayon, axloq, ong, ijtimoiy faoliyat, globallashuv, ijtimoiy-taraqiyot, ma’naviy meros.

Mustaqillik yillarida madaniy merosning yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishdagi o‘rni, ma’naviy-madaniy merosga axloqiy munosabatning milliylik va umuminsoniylik jihatlarini integratsiyalashuvi masalasining ilmiy-falsafiy tahlili, inson va ma’naviy meros munosabatining axloqiylik jihatlarini keng ko‘lamda ochib berish, globallashuv sharoitida bu munosabatlarning o‘rni va ahamiyati hamda ularning muhim xususiyatlarini o‘rganish asosiy maqsad qilib olindi.

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma’lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga chambarchas bog‘liq. Shu ma’noda, O’zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi[1].

Ota-bobolarimizning asrlar davomida to‘plagan ilmiy-hayotiy tajribalari, diniy axloqiy, ilmiy-falsafiy qarashlarini o‘zida mujassam etgan nodir qo‘lyozmalarni jiddiy o‘rganish vaqti keldi. Bunda “Avesto”, Islom falsafasi, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, qolaversa, ma’rifatparvarlar va jadid mutafakkirlarining bu borada olib borgan ijtimoiy-falsafiy g‘oya-larini o‘rganish bu sohada olib borilayotgan ishlarning ajralmas qismi hisoblanadi.

Milliy ma’naviy merosimiz asosida yoshlarning qiyofasining shakllanish jarayoni ma’naviy-axloqiy ong, axloqiy xatti-harakat, ijtimoiy faoliyat va axloqiy munosabat hamda o‘z-o‘zini anglash bilan amalga oshiriladi, zero, vatanimiz taraqiyoti, kelajagi, xalqimiz o‘z oldiga qo‘ygan ulkan maqsadlarga erishish, avvalo, ma’naviy-axloqiy jihatdan etuk yoshlarga, ularning milliy ma’naviy merosimiz ahamiyatiga bog‘liqdir.

Jamiyatimizda boy milliy ma’naviy merosimizni o‘rganish va tadqiq etish milliy ma’naviy merosimiz asosida yoshlarni tarbiyalash va o‘z navbatida ushbu merosimiz yoshlarni o‘qitishda muhim manba sifatida dialektik aloqadorlikda bo‘ladi. Ayniqsa, Abu Rayhon Beruniy, Al-

[1]O‘zbekiston – yoshlar mamlakati. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so’zlagan nutqi. “ Xalq so’zi” gazetasi. 1-bet. 2017 y. 19 sentyabr.

Xorazmiy, Yusuf Xos Xojib, Abu Nasr Forobiy, Mahmud Qoshg'ariy, Xo'ja Axmad Yassaviy, Xo'ja Bahovuddin Naqshband, Najmidin Kubro, Imom Buxoriy, Imom at-Termiziy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari mutafakkir allomalarimizning boy ma'naviy merosi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida milliy ma'naviy merosimizni jamiyatga joriy etish quyidagi dolzarb masalalar echimi bilan belgilanadi:

Birinchidan, ijtimoiy-taraqiyot jarayonida, milliy ma'naviy merosimizni yoshlar ongiga singdirish asosida jamiyatda ham yangilanish va o'zgarishlar jarayoniga moslashish lozim;

Ikkinchidan, milliy ma'naviy merosimiz asosida yoshlarni har tomonlama etuk shaxs bo'lib etishishidagi shart-sharoitlardan oqilona foydalanish.

Bugungi kun milliy ma'naviy merosimiz asosida inson omilini to'liq ro'yobga chiqarish va unda ijtimoiy adolat kabi insonparvarlik tamoyillariga amal qilishni taqozo etmoqda. Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli milliy ma'naviy merosimiz halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharmu-hayo, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar desak hech xato qilmagan bo'lamiz. Yoshlarning tarbiyasiga, kamolotga etishiga, huquqlarini himoya qilishga e'tiborni qaratish davlat siyosatining ustivor yo'nlishlaridan biri hisoblanadi. Shu o'rinda muxtaram Prezidentimizning quyidagi fikrlari buning tasdig'ini ko'rsatadi: "- Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi-bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi-ajdod-larimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat"[1]

Jamiyatning ijtimoiy guruhi bo'lgan talaba yoshlar faolligi jamiyatimiz a'zolariga xos faollikning hamma xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Talaba yoshlar ma'naviyati, avvalo, milliy qadriyatlar ta'sirida shakllanadi. Zero, oila, maktab, mahalla bu jarayonning tamal toshini qo'yadi. Bu esa ular faolligini oshirish, talaba yoshlarda milliy qadriyatlarga sodiqlik tuyg'usini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv zamonida yoshlarning kalbi va ongini egallash uchun misli kurilmagan darajada kurash bormoqda. Bu kurashlar saxnasida O'zbekiston yoshlari qalbi va ongida o'z xalqi o'tmishiga ehtirom va muhabbat hissini singdirish dolzarb vazifaga aylanmokda. Shuning uchun O'zbekiston tarixini chuqur o'rganib, uning moxiyatini anglash, yoshlarni tarixiy an'analar va oliyjanob fazilatlar manbalarini, ularning tarixan tarkib topganligini tushunib olishlariga ko'mak beradi[2].

Ushbu mavzuni o'rganish jarayonida quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi:

-ma'naviy meros tushunchasi, uning axloqiy, ijtimoiy-tarixiy negizlari, xalqimizning milliy o'zligini anglashda va kishilar tafakkurini rivojlantirishdagi o'rni;

-globallashuv jarayonida ma'naviy merosning yoshlar ijtimoiy ongini shakllanishidagi belgilovchilik mohiyati va mazmuni;

-ma'naviy merosning yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishdagi munosabati jarayonida umuminsoniylik tamoyillariga e'tibor;

Ma'naviy boyliklarimiz hisoblanmish milliy urf-odatlar an'analar va qadriyatlarimizning eng nodir durdonalari o'kuv tarbiya jarayoniga kiritilsa, ular ushbu jarayonlardagi barcha ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga asos kilib olinsa, shaxs ma'naviyatida, uning dunyokarashi va hulq atvorida ijobiy xislatlarning shakllanishida yanada ko'prok imkonlar yaratiladi.

Xulosa qilib aytsak, jamiyatning ma'naviy sohasi mamlakat taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Shu narsa haqiqatki, biron-bir mamlakat o'z ma'naviy imkoniyatlariga tayanmay, odamlar ongi, tafakkurida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg'otmay turib, yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi. Ma'naviyat insonni ruhiy

[1] Sh.Mirziyoev. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish masalasiga bag'ishlangan videose-lektor yig'ilishidagi ma'ruzasi. 19.01.2021 y.

[2] Toxiriyon A. "Milliy-ma'naviy merosning yoshlar tarixiy ongini shakllantirishdagi ahamiyati". Zamonaviy ta'lim - Современная образования. 2014-3.

poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, uning ichki olamini boyitadigan, iymon irodasi, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli kuchdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston – yoshlar mamlakati. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi. " Xalq so'zi" gazetasi. 1-bet. 2017 y. 19 sentyabr.

2.Sh.Mirziyoev. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish masalasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi. 19.01.2021 y.

3. Toxiriyon A. "Milliy-ma'naviy merosning yoshlar tarixiy ongini shakllantirishdagi ahamiyati". Zamonaviy ta'lim - Современная обро-зования. 2014-3.